

**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI TASVIRIY VOSITALAR
INGLIZCHA TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK
TASNIFI (SINEKDOHA MISOLIDA)**

**Karimov Ma’rufjon Mamirjonovich,
NamMTI, tayanch doktoranti,**

Annotatsiya:

Ushbu maqola orqali A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash muammolarini yoritishga harakat qildik. Bunda parchadan yoki diskursdan keltirilgan sinekdoxa ifoda vositasi qatnashgan misollar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: sinekdoxa, lingvokulturologiya, madaniyatlararo, retsepsiya, zamonaviy tilshunoslik, pragmatik jihat, adekvatlik, tasviriy ekvivalent, tarjima usullari, predmet, sorcerer, charm, calamity, fathom, spell from, costly garments.

Аннотация

Посредством данной статьи мы попытались пролить свет на проблемы сохранения лексико-стилистической окраски в английских переводах романа А. Кадыри «Минувшие дни». В данном случае анализировались примеры синекдохи, выраженные из отрывка или рассуждения.

Ключевые слова: синекдоха, лингвокультурология, межкультурность, рецепция, современное языкознание, прагматический аспект, адекватность, образный эквивалент, способы перевода, предмет, колдун, оберег, бедствие, сажень, заклинание, дорогие одежды.

Abstract

Through this article, we tried to shed light on the problems of maintaining lexical-stylistic coloring in the English translations the novel “Days Gone by” by A. Kadiri. In this case, the examples of synecdoche expressed from a passage or discourse were analyzed.

Key words: synecdoche, linguoculturology, interculturality, reception, modern linguistics, pragmatic aspect, adequacy, figurative equivalent, translation methods, object, sorcerer, charm, calamity, fathom, spell from, costly garments.

Ilmiy tadqiqotlarda lingvokulturema termini qo'llanila boshlandi. Lingvokulturemalar - nominativ, predmetlik ma'nosidan tashqari, milliy-madaniy (tildan tashqaridagi madaniy ma'no) kabi segmentlarni o'z ichiga oladi. So'z (belgi-ma'no) til birligi sifatida lingvokulturemaning tarkibiy qismi hisoblanadi. So'z tildagi narsa-hodisalarni ifodalasa, lingvokulturema predmet mazmunini ifodalaydi. Lingvokulturema tildagi ifodasiga ko'ra so'z, gap, atama, so'z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Lingvokulturema til birligiga nisbatan murakkab hodisadir. U o'zida tilning ifodasini, tasavvuri bilan birga tildan tashqaridagi muhitni (vaziyat, reallik), mavjudlikni ifoda etadi. Ona tili yoki boshqa chet tilini yaxshi biladigan har qanday shaxsning nutqida madaniy (kulturniy areal) ma'no ishtirok etadi. Madaniy ma'nosiz u yoki bu matnning mohiyatiga kira olmaymiz, u haqidagi mazmunni idrok eta olmaymiz. Matn mazmunidagi madaniy fenomenni tushunib yeta olmaymiz. U yoki bu millatga xos bo'lgan o'ziga xoslikni tasavvur etish uchun milliy mentallikni anglash bilimi zarur. Lingvokulturema o'ziga xoslangan nominativ ma'noni ifoda etishi bilan birga madaniy-ma'rifiy, milliy mentallik assosiativ tasavvurlarni anglab yetish imkoniyatini yaratadi.

“O'tkan kunlar” romanidagi sinekdoxalardan yana birini tahlil qilamiz, bunda sinekdoxa ning lingvokulturologik jihatlarini qay tarzda ifoda etilishiga e'tiborimizni qaratamiz. “O'tkan kunlar”da keltirilgan yana bir sinekdoxaga e'tibor qilamiz: *“Ammo kaminalari bu xususdagi aybni sizning ustingizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo'lg'an “yolg'iz tuyoqliq” savdosi sizning ham boshingizda bordir. Nachukkim, Otabekning ko'p umri Marg'ilonda o'tib, bizlarni ham siz o'ylag'an og'irliqqa solmoqdadir”* Sinekdoxa I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida: “By the way, I couldn't blame you for it, because you have also the **only child** like we. Otabek is spending much time of his life in Margilon. He makes trouble for us”

(Aytgancha, bunda sizni ayblay olmayman, chunki sizning ham biz kabi yagona farzandingiz bor. Otabek umrining ko‘p vaqtini Marg‘ilonda o‘tkazadi. U bizni tashvishlantiryapti) (KM) deb beriladi.

Kerol Yermakova tarjimasida esa: “I do not blame you, far from it, for you, too, have **only one child**, but for your part, you should understand us. Presently, since you do not wish your daughter to come to Tashkent, Atabek spends most of his life in Margilan, and this dooms us to loneless” (Men sizni ayblamayman, bundan yiroqman, sizning ham bitta farzandingiz bor, lekin o‘zingizdek bizniyam tushunishingiz kerak. Hozir siz qizingizning Toshkentga kelishini istamaganingiz uchun Otabek umrining ko‘p qismini Marg‘ilonda o‘tkazishi bizni yolg‘izlikka mahkum etadi) (KM) deb beriladi.

Mazkur parchada keltirilgan “o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an tuyoqimiz” va “yolg‘iz tuyoqliq” birikmalari sinekdoxa ifoda vositasi orqali ma‘no ko‘chishini hosil qilmoqda. “Yolg‘iz tuyoqlik” birikmasi aslida Yusufbek xoji oilasida Otabek hamda Mirzakarim qutidor oilasida Kumushning yolg‘iz farzand ekanliklarini anglatmoqda. Bu yerda ishlatilgan ma‘no ko‘chishi badiiy adabiyotning serjiloligidan dalolat beradi.

Ushbu birikmani I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov “we have no children but Otabek..” (bizni Otabekdan boshqa farzandimiz yo‘q...); “yolg‘iz tuyoqliq” savdosi sizning ham boshingizda bordir” ko‘chma ma‘no ifodalangan jumla “you have also the only child like we...” (sizda ham biz kabi yagona farzand...) tarzida berilgan.

Kerol Yermakova tarjimasida “besides Atabek we have no other children...” (Otabekdan boshqa farzandimiz yo‘q...”; “...you, too, have only one child” sizning ham bittagina farzandingiz bor...) deb o‘g‘irgan. Mazkur sinekdoxali birikma o‘zbek hamda ingliz tarjimonlari talqinida ham mazmun jihatidan to‘g‘ri qilingan biroq asliyat matnidagi ko‘chma ma‘noni ifodalagan birikma tarjima matnida aks etmagan. Har qanday tarjima matnida badiiy matnning estetik qiymatini oshiruvchi ifoda vositalarining jarangdorligi asliyat matnidek bo‘lmaydi, buni amalga oshirish mushkul jarayon. Tarjimonlar

“yolg‘iz tuyoqliq” savdosi sizning ham boshingizda bordir” jumlasini tarjimada qayta tiklay olmaganlar. Natijada asliyat matnining lingvokul'turologik hamda pragmatik xususiyatlari ochib berilishida g‘alizlik sezilib qolgan. Yuqoridagi jumla tarjimasida I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov ham da K.Ermakovalar transpozisiya usulidan, ya'ni so‘z turini o‘zgartirishdan foydalanishgan. “Yolg‘iz tuyoqliq” birikmasi “yolg‘iz farzand” tarzida qayta tiklangan, ko‘rinadiki ko‘chma ma'no oddiy ma'noda aks ettirilgan.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya'ni ko‘chma ma'nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo‘llanish zarurati ma'lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo‘lsa-da, ammo ularning badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo‘q. Asliyat matnidagi badiiy estetik qiymatni tarjima matnida ham saqlanishi esa mutarjimning mahoritiga, tajribasiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Toshkent, 2019, - B. 172

I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov. The days gone by. Tashkent, 2017, p. 155

Carol Ermakova. Days gone by. Paris, 2018, p. 149

Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN "BABURNAME" BY ZM BABUR. Вестник современной науки, (9- 1), 97-99.

Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF “BABURNAME”. Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.

Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN "BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.

Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.

Axmadjonov Nurbek, Xabibullayeva D. Classification and linguocultrological characteristics of precedent units. Fars international journal of education, social science humanities. issn: 2945-4492. 10(12); 2022; Impact Factor: SJIF 2022 6.786. P. 777-780